



# FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2021-YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




## Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021-yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyati korxonalari tomonidan 27805,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,7%ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,2 %ga o'sishi kuzatildi.*

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 138,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5%ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



### Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25965,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,4%ini tashkil etdi.


2020-yil yanva-dekabr

92,2 %

2021-yil yanvar-dekabr

93,4%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,7 % (14,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,7 % (29,0 %) va quyi texnologiyalisi – 58,0 % (55,9%)ni tashkil etdi.





Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,8 % (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 36,6% (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,5% (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 124,0%)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



Neft bitumi ming t




2019- y. 2020- y. 2021- y.

Aroq ming litr  
100% spirt



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Uzum vinosi ming l




2019- y. 2020- y. 2021- y.

Karbamid,  
ming tonna




2019- y. 2020- y. 2021- y.

Paxta chigiti ,  
ming tonna



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Paxta linti ming t



2019- y. 2020- y. 2021- y.

2021-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 229,8 ming tonna avtomobil benzini (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 39,2 %ga oshgan), 338,7 ming tonna dizel yoqilg`isi (14,6 % oshgan), 131,5 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (25,1%ga ortgan) hamda 71681,4 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (23,7 %ga ortgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	165,1	229,8	64,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	281,7	257,8	-23,9
Paxta tolasi, ming t.	55,2	64,7	9,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	32,4	21,5	-10,9

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

**Karbamid** Ming. t



2020-yil

150,9

2021-yil

154,9

**Dizel yoqilg'isi** Ming. t




2020-yil

313,1

2021-yil

358,7

**Portlandsement** . t



2020-yil

1269,3

2021-yil

925,8

**Etil spirti** Ming. l



2020-yil

22665,0


2021-yil

18255,0

Farg'ona viloyatida 2021-yil yanvar–dekabr oylarida jami 154,9 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 14,5 % ortib , portlandsement ishlab chiqarish 27,1% kamaygan . Etil spirt ishlab iqtarish 18255,0 ming litrni tashkil etgan va 19,5 % kamaygan.

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati 153,1 mlrd soʻmni yoki jami sanoat ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7 %ni, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati 254,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 10,0%ni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 2513,9 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 12,6 %ni tashkil etgan, 2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 3041,6 mlrd soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 11,7 %ni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3651,3 mlrd soʻmni, joriy 2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 4161,7 mlrd soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi 4,8 %ga oshgan.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 64,8 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 68,9 mlrd. soʻmni tashkil etib 4,1 mlrd. soʻmga ortgan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etdi.



### Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 5519,8 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 27,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 8035,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 30,9 %ni tashkil etdi va 3,3 punktga koʻpaydi .

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 %ni yani jami 782,4 mlrd soʻmni tashkil etgan, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 4,1%ni tashkil etib 1 075,7 mlrd. soʻmga tengdir. Fargʻona viloyatida kiyim ishlab chiqarish oʻtgan 2020-yilning mos davriga nisbatan 293,3 mlrd. soʻmga ortgan.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 2149,4 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,7 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 2849,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 11,0 %ni, tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2020-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 2221,3 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 11,1 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 7,8 mlrd. so'mga ko'payib, 2228,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 2,0 %ni yani 414,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o'tgan yilga nisbatan 242,8 mlrd. so'mga ko'paygan. Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 2,5 %ni yoki 656,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1526,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 %ini) tashkil etadi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabr	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	751,5	1326,3	574,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	678,3	166,6	-511,7

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 174,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	83,8	110,3	26,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln.so'm</i>	46,2	64,5	18,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 26,3 mird. so'm yoki 31,6 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 39,6 %ga ko'paygan.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10774,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan **108,8%**ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,7%ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil  
yanvar-dekabr

41,2%

2021-yil  
yanvar-dekabr

39,5%

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil  
yanvar-dekabr

58,8%


2021-yil  
yanvar-dekabr

60,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 64,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 17,0%ni va Qo'qon shahrida 15,8%ni tashkil etdi.

### Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 1828,2 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 16,9 %, Qo'qon shahrida 1703,7 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,8 %i shuningdek, Farg'ona shahri 1357,0 mlrd. so'mlik, 12,6 %ni tashkil etdi.




10360,9 mlrd. so'm

2020-yil

10774,6 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-dekabr



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

111,4%

2021-yil

108,8%

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Farg'ona viloyati hududlari kesimida  
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona shahriga to'g'ri kelib, 25,8%ni, shuningdek, Qo'qon shahri 15,2%ni, Toshloq tumani 12,1%, Uchko'prik tumani 8,5%ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati

2020-yil

21 701,2 mlrd. so'm

2021-yil

27 805,3 mlrd. so'm

yanvar-dekabr




2020-yil

104,2 %

2021-yil

108,5 %



FHI, %da

mlrd. so'm

### Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 17,9% shuningdek, Uchko'prik tumani 15,6 %, Farg'ona shahri 15,4 %ni tashkil etadi.

**7143,3** mlrd. so'm

2020-yil

**6516,6** mlrd. so'm

2021-yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

60,5%

94,9 %

2020-yil

112,0 %

2021-yil

Marg'ilon sh	110,6	558,8
Quvasoy sh	163,2	98,6
Qo'qon sh	134,8	1167,7
Farg'ona sh	108,9	1000,6
Yozyovon t	88,1	78,4
Furqat t	189,1	142,7
Dang'ara t	113,1	246,6
Farg'ona t	60,3	73,0
O'zbekiston t	75,1	143,4
Toshloq t	100,9	584,4
So'x t	246,2	29,8
Rishton t	102,5	150,2
Uchko'prik t	100,7	1 014,4
Quva t	88,2	92,9
Beshariq t	94,9	168,0
Buvayda t	118,2	228,8
Bog'dod t	154,0	534,4
Qo'shtepa t	85,6	126,7
Oltiariq t	132,8	77,1


o'sish sur'ati

mlrd. so'm




### Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 19,1 %ni, shuningdek, Qo'qon shahri 12,6% ni, Marg'ilon shahri esa 9,9 %ni tashkil etdi.




3217,6 mlrd. so'm  
2020-yil yanvar-dekabr

4258,1 mlrd. so'm  
2021-yil yanvar-dekabr







Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (24251,5 ming so'm), Qo'qon shahrida (16345,2 ming.so'm) hamda Toshloq tumanida (16164,9 ming.so'm) ,Uchko'prik tumanida (10125,8 ming so'm).



Farg'ona viloyati



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2373,6 ming so'm bo'lgani holda, Qo'qon shahrida – 5662,3 ming so'mni, Uchko'prik tumanida 6691,0 – Farg'ona shahrida 3460,3 Marg'ilon shahrida 3647,5 ming so'mni, tashkil etdi.

### Farg'ona viloyati

2020-yil

2736,6 ming. so'm

2021- yil

2792,6 ming. so'm



109,4 %

2020-yil

106,7 %

2021-yil

Yozyovon t.	102,8	1389,9
Furqat.t	130,3	2372,6
Dang'ara t.	98,2	2163,9
Farg'ona t.	110,8	1071,1
O'zbekiston t.	98,8	1118,5
Toshloq t.	98,9	3235,7
So'x t.	99,8	971,6
Rishton t.	102,5	1163,1
Uchko'prik t.	98,5	7796,2
Quva t.	98,9	1111,8
Beshariq t.	98,9	1320,2
Buvayda t.	107,9	1669,1
Bo'dod t.	129,1	4056,2
Qo'shtepa t.	99,3	1597,9
Oltiariq t.	120,5	800,0
Marg'ilon sh.	104,7	4070,0
Quvasoy sh.	136,6	2149,9
Qo'qon sh.	113,6	6601,0
Farg'ona sh.	105,9	4580,0


ming. so'm

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12745,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,9 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, Soʻx, Furqat, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchkoʻprik tumani (84,3%), Bagʻdod tumani (84,0%), Buvayda tumani (83,7%), Dangʻara tumani (80,3%), Rishton tumani (62,3%), tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani (12,3%), Fargona tumani (34,5%), Quvasoy shahri (36,6%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 10390 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 9983 faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1413 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 14,2 %) Qo'qon shahriga, 1124 tasi (11,3%) Farg'ona shahriga, 1023 tasi (10,3 %) Marg'ilon shahriga, 673 tasi (6,7%) Uchko'prik tumaniga, 583 tasi (5,8 %) O'zbekiston tumaniga, 582 tasi (5,8 %) Buyayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

1886 dona

2021-yil

2111 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020-yil

9107 dona

2021-yil

9983 faol korxonona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 135 ta loyiha bo'yicha 1511,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 11,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 1287 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 275,0 %ga oshgan. Shu bilan birga, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.